



HARAKAT HAVFSIZLIGI – HAYOT DAHLSIZLIGI

Axmedov Xasan Ilxomovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Farg'ona viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati havfsizligi boshqarmasi yo'l-patrul xizmati Maxsus otryad komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10349968>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2023

Accepted: 10th December 2023

Online: 11th December 2023

KEY WORDS

Yo'l-transport hodisasi, yo'l-transport hodisasini oldini olish, jamoatchilik, piyoda, haydovchi, yo'lovchi, avariya o'choqlari.

ABSTRACT

Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb hisoblanib, u sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining jamoatchilik bilan hamkorlikda oldini olish masalalariga bag'ishlanadi.

O'zbekistonda yil sayin transport vositalarining soni va yo'llarda harakatlanish jadalligi o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, fuqarolarimiz hayoti va sog'ligi, mol-mulkni himoya qilish yuzasidan samarali tadbirlarni amalga oshirish, sodir etilgan hodisalarining oqibatlarini kuchaytirib, bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozimligini taqazo etmoqda.

Ichki ishlar vazirligining yo'l-transport hodisalari bo'yicha rasmiy ma'lumotlarida, O'zbekistonda 2023 yilning 11 oyi davomida 8696 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan, unda 1834 qurboni bo'lgan, bu kuniga o'rtacha 6 nafarni tashkil etadi. 2022 yilda esa mamlakatimizda 9902 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan hamda ularda 9606 nafar fuqaro jarohatlangan va 2356 nafar fuqaro halok bo'lgan. 2021 yil davomida O'zbekistonda 10001 ta yo'l-transport hodisasi rasman qayd etilgan, 2426 kishi halok bo'lgan, 9230 kishi turli darajadagi tan jarohatlari olgan.

Yo'llarda tirbandliklar kelib chiqishiga transport vositalari soni aholi jon boshiga ko'payishi va yirik shharlarda yangi avtomobil yo'llarini qurish imkoniyati cheklanganligi, svetofor orqali transport oqimini boshqarishning yagona aqlli avtomatlashtirilgan tizimi to'liq joriy etilmagani sabab bo'lmoqda.

Farg'ona viloyatida joriy yilning 11 oyi davomida 277753 ta qoidabuzarliklar aniqlangan bo'lib, 107338 tasini qo'pol qoidabuzarliklar tashkil etadi. Avtomobilni mast holda boshqarish, tezlikni me'yoridan oshirish, noqonuniy qo'shimcha jihozlar o'rnatib olish, quvib o'tish, odam tashish va telefondan fodalanish qoidalarini buzish hamda avtomobilni tegishli hujjatlarsiz va majburiy sug'urta polislarisiz boshqarish shular jumlasidandir. Bu kabi qoidabuzarliklar o'z navbatida ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda.

Jumladan, Farg'ona viloyati joriy yilning 11 oyi davomida 1219 ta yo'l-transport hodisasi natijasida 997 nafar shaxs tan jarohati olgan, 222 nafari halok bo'lgan. Baxtsiz hodisalarining



oldini olishda va bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 avgust kungi "Yo'l harakati havfsizligi kunini o'tkazish va yo'l-transport hodisalari profilaktikasining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, 2022-2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi doirasida viloyatimizda kameralar o'rnatish, ularni viloyat va respublika monitoring markazlariga integratsiya qilish, yirik bozorlar atrofida ko'p qavatli yoki er osti avtoturargohlari hamda avtomatlashtirilgan yo'l bo'yi to'xtab turish joylarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda yo'l-transport hodisalarining oldini olishda Farg'ona viloyati IIB JXX YHXB hodimlari bilan korxona va tashkilotlar, oliy va o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasalari, mahalla, ota-onalar hamda keng jamoatchilik o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Fuqarolarga yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari tushuntirilib, ularning salbiy oqibatlari xususida atroflicha ma'lumot berilmoqda. Muntazam ravishda ko'rgazmali tadbirlarning o'tkazib borilishi yo'l-transport hodisalari soni sezilarli darajada kamayishida muhim ahamiyatga ega. Farg'ona viloyatida 11 oy davomida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalari 215 taga yoki 15,0 foizga, yo'l-transport hodisalarida tan jarohati olganlar 193 taga yoki 16,2 foizga, halok bo'lganlar 22 taga yoki 9,0 foizga kamayishiga erishildi.

Farg'ona viloyati yo'l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- alohida farmoyish bilan joriy yilning oktabr oyida yo'l-transport hodisalarini oldini olish bo'yicha "Zarbdor oylik" e'lon qilindi;
- yo'llarda havfsizlikni ta'minlash borasidagi tadbirlarga 20 nafar soha faxriylari jalb etildi;
- har bir sodir etilgan yo'l-transport hodisasi va qoidabuzarliklar bo'yicha keng jamoatchilik ishtirikida "Sayyor sud"lar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi;
- so'nggi 3 yilda yo'l-transport hodisalarining asosiy salmog'i 63-64 foizgacha qismi piyodalar va velosipedchilar ishtrokida sodir etilganligini inobatga olib, ushbu yo'nalishda ishlarni kuchaytirish;
- mahalla va xalqaro avtomobil yo'llarida ogohlantiruvchi bukletlar tarqatish amaliyotini yo'lga qo'yish;
- yo'l-transport hodisalarining asosiy salmog'i xalqaro ahamiyatdagi yo'llarda sodir rtilayotganligini inobatga olib, mazkur yo'llarda doimiy harakatdagi "xushyorlikka chaqirish maskanlar" faoliyati yo'lga qo'yildi;
- davlat ahamiyatidagi yo'llarning asosiy qismi aholi punktlaridan o'tganligi inobatga olinib, mazkur hududlarda uyma-uy yurish orqali targ'ibot tadbirlarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi;
- ta'lim muassasalari oldida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar kuchaytirildi;



- yo'l-transport hodisalarining asosi salmog'i 30 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan haydovchilar tomonidan sodir etilganligi inobatga olinib, mazkur toifa haydovchilar o'rtasida targ'ibot tadbirlari kuchaytirildi;
- Farg'ona viloyati hududida 52 ta "avariya o'choqlar" aniqlanib, har biriga Farg'ona viloyati IIB JXX YHXBdan mas'ul hodimlar biriktirildi;
- sodir etilgan og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalari bo'yicha videorolik tayyorlab, korxona va tashkilotlar hamda ta'lim muassasalarida namoyish etish orqali haydovchilarni xushyorlikka chaqirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Piyodalarning uyali aloqa vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilmasliklari ham ko'plab yo'l-transport hodisalarining yuz berishiga olib kelmoqda.

Haydovchilar bilan birgalikda yo'lovchilar ham yo'l harakati qoidalariga to'liq rioya qilishlari va yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning oldini olishga mas'ul ekanliklarini unitmasliklari kerak. Eng muhimi har bir fuqaro yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish orqali o'zining, o'zgalarning ham hayotini asrashga, oilasi, yaqinlari tinchligini ta'minlashga hissa qo'shadilar.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 avgustdagi "Yo'l harakati xavfsizligi kunini o'tkazish va yo'l-transport hodisalari profilaktikasining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 701-son qarori.
2. Akhmedov Kh(2022). The role of the neighborhood in prevention of road traffic accidents in the Republic of Uzbekistan in cooperation with the community and the process of establishing a neighborhood sistem in the territorial public security services of the Ministry of Internal affairs // Scientific progress. 2022 №3. 365-370 p. ISSN 2181-1601
3. www.data.egov.uz
4. www.iiv.uz
5. www.lex.uz
6. www.xs.uz
7. www.gazeta.uz
8. www.kun.uz